

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Abdullayeva Gulsanam O‘tkirjon qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti 208-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalqimiz ravnaqi va farovonligini, davlatimiz taraqqiyoti va osoyishtaligi ta’minlashdagi ahamiyati, shuningdek, qonunlarnig hayotimizdagi o‘rni haqida, mamlakatimiz fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklari, burchlari to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Respublikasi, konstitutsiya, demokratiya, o‘zbek xalqi, fuqarolar erkinligi, jamiyat.*

Davlatimiz bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida alohida o‘ringa ega va kundan kunga yuksalibe, taraqqiyot va muvaffaqiyatlar yo‘lidan dadil qadam tashlamoqda. Albatta bunga davlatimiz rahbarining tashabbuslari, xalqimizning mehnati va biz yoshlar erishayotgan yutuqlarning o‘rni beqiyos! Mustaqillikka erishganimizdan buyon ilk marta mamlakatimiz milliy terma jamoasi jahon chempionatiga chiqdi, U17 terma jamoamiz esa yaqinda o‘tkazilgan Osiyo kubogida g‘olib bo‘ldi! Bundan tashqari UNESCOning 43-sessiyasi, 40 yil ichida ilk marotaba Parij shahridan tashqarida, go‘zal va ulug‘vor Samarqand shahrida o‘tkazildi! Sportchilarimiz 2024-yilgi yozgi Olimpiada o‘yinlarida 13 ta medalni, jumladan: 8 oltin, 2 kumush va 3 bronza medallarini qo‘lga kiritdilar! Dunyo davlatlari reytingda O‘zbekiston 206 davlat ichida 13-o‘rinni egalladi!

Albatta bu sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalambor, xalq farovonligi, fuqarolarning munosib turmush tarzi va sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Albatta bu yutuqlarga erishish oz muncha kuch talab etmadi. Bularning negizida puxta o‘ylangan rejalar, tartibga solingan va demokratiya tamoyillariga asoslangan qonunlar yotadi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan sanadan e‘tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topgan bo‘lsa, birinchi Konstitutsiya qabul qilinishi barobarida mustaqillikning huquqiy tamal toshi o‘rnatilgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasi eng taraqqiy etgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan.

Mamlakatimiz asosiy qonuni bo‘lmish Konstitutsiyamizda insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Jumladan Konstitutsiyamizning Yettinchi, “Shaxsiy huquq va erkinliklar” bobi, 26-moddasida “Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas” deya ta’kidlangan.

Asosiysi, mamlakatimiz fuqarolarining hayot va ijtimoiy jarayonlardagi muammolarni hal etishda ishtirok etishga intilishi kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan birga, amaldagi qonunlar to‘laqonli faoliyat yuritishi, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni

to'laqonli amalga oshirishga xizmat qilishi, bir so'z bilan aytganda, islohotlarni amaliyotga tatbiq etishi uchun fuqarolar huquqiy ong va bilimga ega bo'lishlari muhimdir. Barcha fuqarolarda Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish, ularga rioya qilish zarurati tuyg'usi shakllangandagina jamiyat hayoti va turmush tarzi o'zgaradi. Shu sababdan bizga maktablarda huquq va tarbiya fanlari o'qitiladi va turli tanlov va musobaqalar orqali yoshlarda huquqiy immunitet shakllantiriladi. Shu jumladan o'quvchilarning asosiy qonunimiz bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqidagi bilimlarini kengaytirish, huquqiy savodxonligini oshirish juda muhim.

Har bir davlanning asosiy qonuni bo'lgani kabi, bizda o'z konstitutsiyamiz bor. Hech bir hujjat yoki qarorlar o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas. Qonunlar va boshqa yuridik hujjatlarning Konstitutsiyamizga mosligini aynan Konstitutsiyaviy sud tekshiradi. Asosiy qonun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, inson huquq va erkinliklarini, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga zamin yaratdi. U ijtimoiy munosabatlarning izchil rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi va fuqarolar, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar vektorini belgilaydi. Konstitutsiyaviy huquqning asosini amaldagi Konstitutsiyaning o'zi tashkil etadi. Konstitutsiyaning har qanday milliy huquq tizimidagi o'rni va roli asosiy va muhim hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha mamlakatlar uchun yagona universal konstitutsiyaviy model mavjud emas va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir davlat o'zining konstitutsiyaviy rivojlanish yo'liga ega. Bu borada mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi ham bundan mustasno emas. Jumladan 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekistonda umumxalq referendumini o'tkazildi. Referendumda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish» bo'yicha Konstitutsiyaviy qonun tasdiqlandi. Bunda referendumda saylovchilarning taxminan 84,54% ishtirok etgan va ovoz berish natijalariga ko'ra, 90,21% tarafdor “ha” deb ovoz bergan.

Markaziy saylov komissiyasining qarori bilan 1-maydan e'tiboran rasman kuchga kirdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat. Yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizning Muqaddimasida: "Biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot

kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz" deb bayon qilingan.

Yangi konstitutsiyaga bir qator o'zgartirishlar kiritildi, jumladan:

-Prezidentni vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi

-O'lim jazosini bekor qilindi

-Majburiy mehnatni taqiqlandi

-Sud tizimi mustaqilligini kuchaytirish va Konstitutsiyaviy sudga yangi tuzilma berish belgilab qo'yildi

-Oliy majlis Senati a'zolari soni kamaytirildi

Shundan so'ng Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023-yil 3-oktyabrda "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qaror bilan hukumat qarorlari bilan tasdiqlangan muayyan nizom va reglamentlarning ayrim bandlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Konstitutsiyamiz o'zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko'ra Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi. Ma'lumki, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan hozirgi kunda biz yoshlarga ham juda katta imkoniyatlar berilmoqda. Aynan shu ham Konsitutiya da belgilab qo'yildi, ya'ni "Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralari ni ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi".

Bundan tashqari konstitutsiyamizning 50-moddasida bepul ta'lim olish huquqi, davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi qayd etilgan

Bu davlatning Konstitutsiyaga ega bo'lishi mustaqil demokratik huquqiy davlat taraqqiyoti va taraqqiyotining asosiy poydevori bo'lishi bilan birga, sharti ham ekanligi jahon miqyosida ta'kidlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan keyingi yillar davomida uning norma va qoidalari hayotga izchil tatbiq etilmoqda. O'zbek xalqi hayotining barcha jabhalarida ko'plab yutuqlarga erishildi va yutuqlar salmog'i kundan kunga ortib bormoqda. Konstitutsiyamiz sharofati bilan mamlakatimizda fuqarolar va millatlar o'rtasidagi totuvlik ta'minlanib, turmush darajasi yildan-yilga yuksalib, ijtimoiy-madaniy rivojlantirish, ta'lim, fan va sport sohalarida yuksak marralarga erishilib kelinmoqda. Kelajak egalari bo'lgan yoshlar O'zbekiston Konstitutsiyasining yaratilish tarixi, konstitutsiyaviy tuzum tamoyillari, mamlakatimiz bosh qonunida ifodalangan suverenitet va demokratiya ramz va tamoyillari haqida nazariy va amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi uchun turi jora tadbirlar amalga oshirilmoqda va so'ngi yillarda yoshlar uchun yanada ko'plab imkoniyatlar yaratilib, katta e'tibor va ishonch qaratilmoqda. Bu ham Respublikamiz Konstitutsiyasida

mustahkamlab qo'yilgan insonning huquq va majburiyatlari, ularni amalga oshirishga oid moddalarning samarasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qomusimiz, asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyani o'rganish har bir O'zbekiston respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxs uchun muqaddas vazifadir! Chunki qonunlarni bilmasdan turib, shaxsiy huquq va majburiyatlarini anglash imkonsizdir! Shu bois jamiyatimizda konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday qonun avvalo uni bilish va hurmat qilish, unga so'zsiz rioya etish orqali qonuniylik bilan birga amaliylik ham kasb etadi. Konstitutsiyaning normalarini ham aynan ana shu ongli itoatkorlik harakatga keltiradi. Yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lmadan turib Konstitutsiyaning boy salohiyatini to'laqonli amalga oshirish mumkin emas. Lekin faqatgina Konstitutsiyani bilishning o'zi bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Unga amal qilish va ishonish kerak. Shundagina hayotimizda osoyishtalik, mamlakatimizda tinchlik hukm suradi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Mirziyoev Shavkat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag,,ishlangan tadbirlar dasturi to,,g,, risida”gi farmoni.
3. A.Rahimov "Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining kafolati" "Xalq so,,zi" ro,,znomasidagi maqolasi. 09.12.2021 yil. 2- bet.